

2019 yilning yanvar - aprel oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **6246,1 mlrd.so'mnni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi 95,2 % ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **969,2 mlrd.so'mnni**, o'sish sur'ati **103,4 %** ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **15,5 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **16,6 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar - aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 6246,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 95,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishslashda – 90,6 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida – 98,3 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 104,0 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 93,7 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar - aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar - aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2815,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 45,1 % ni tashkil etdi.

Tog' - kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan neft qazib olish hajmining - 8,0 % ga, gaz kondensati – 0,6 %, tabiiy gaz – 2,9 % ga, chaqiq tosh – 43,9 % ga, shag'al – 8,2 % ga, qum – 33,8 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

**Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalari
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish**

2018 yil yanvar - aprelda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019 yil yanvar - aprelda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
--	--	--	----------------------

Neft, ming tonna

190,8



175,5

92,0

**Tabiiy gaz, mln.kub.metr**

11307,8



10974,9

97,1

**Gaz kondensati, ming tonna**

473,6



470,9

99,4

**Shag`al, ming tonna**

56,9



52,3

91,8



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar - aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2533,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 40,6 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan polietilen – 1,8 % ga, ip-kalava – 25,7 % ga, plastmass quvurlar – 18,9 % ga oshganligini, paxta tolasi, o'simlik yog'i (tozalangan) va alkogol ichimliklar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yil yanvar - aprelda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar - aprelda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Plastmass quvurlar, tonna			
1298,4		1544,0	118,9 ↑
Polietilen, ming tonna			
46,0		46,8	101,8 ↑
Alkogol ichimliklar, ming. litr			
912		846	92,8 ↓
Ip-kalava, tonna			
5710,0		7179,0	125,7 ↑

2018 yil yanvar - aprelda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar - aprelda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
---	--	---	-------------------------------------

Paxta tolasi, tonna

66914



30080

45,0



O'simlik yog'i (tozalangan), tonna

9853,1



8309,7

84,3



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va
havoni konditsiyalash.***

2019 yil yanvar - aprel oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 845,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,5 % ni) tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya
tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig`ish, qayta ishslash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarning –104,4 % ga oshganligi, chiqindilarni yig`ish, ishlov berish, yo`qotish va utilizaciya qilish bo'yicha xizmatlarning esa – 85,0 % ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


2019 yilning yanvar - aprel oylarida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 969,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 15,5 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar -aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2019 yil yanvar - aprel oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 58,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlari - 41,7 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 2,2 % tashkil etdi.


Yanvar - aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 35,4 % ulushini), G'uzor (19,3 %), Nishon (11,3 %) tumanlari, Qarshi shahri (10,8 %), Qarshi (4,4 %) va Koson (4,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2019 yilning yanvar - aprel oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Shu bilan birga eng kam ulush Chiroqchi (1,2 %), Mirishkor (1,2 %), Qamashi (1,4 %), Kitob (1,5 %), Shahrисабз (1,5 %) va Yakkabog' (1,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmiga Muborak tumani 2212,4 mlrd. sumni, G'uzor tumani 1208,5 mlrd. sumni, Nishon tumani 704,7 mlrd. sumni va Qarshi shahri 673,1 mlrd. sumni sezilarli darajada tashkil etdi.

2019 yilning yanvar - aprel oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi




**2019 yilning yanvar - aprel oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish indeksi, 2018 yil yanvar - aprel oylariga nisbatan
%**



Hududlarning ishlab chuarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalgam oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Chiroqchi (2018 yil yanvar – aprel oylariga nisbatan 145,6 %), Yakkabog' (140,9 %), Dehqonobod (124,4 %), Kitob (118,0 %) va Koson (115,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

2019 yil yanvar - aprel oylarida shahar va tumanlar bo`yicha istemol mollarning o`sish sur`atlari, 2018 yil yanvar - aprel oylariga nisbatan %




Iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi Koson tumanida (2018 yil yanvar - aprel oylariga nisbatan 107,4 % ga), Dehqonobod tumanida (107,0 %), Qarshi tumanida (106,5 % ga), G'uzor tumanida (105,8 % ga) va Mirishkor tumanida (105,3 % ga) oshdi.

Shuningdek, Iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahar (iste'mol tovarlari hajmida 31,5 %), Koson (10,1 %), Shahrisabz (8,2 %) tumanlarida va Shahrisabz shahrida (7,8 %) ishlab chiqarildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (26028,6 ming so'm), G'uzor tumanida (6054,5 ming so'm), Nishon tumanida (4729,3 ming so'm) va Qarshi shahrida (2480,1 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1940,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yilning yanvar – aprel oylarida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirdorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,2 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 16,6 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chiroqchi tumanida (82,2 %), Qamashi (78,4 %), Shahrисabz tumanida (77,7), Yakkabog` tumanida (68,1 %), Qarshi (53,5%) va Shahrисabz (52,4 %) shaharlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,0 %), G'uzor tumanida (1,9 %), Nishon tumanida (3,3 %) va Dehqonobod tumanida (10,0 %) kuzatildi.


2019 yilning yanvar - aprel oylarida tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini.

Bugungi kunda viloyatda 2 mingdan ziyod sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 642 tasi Qarshi shahrida, 382 tasi Kitob tumanida, 267 tasi Shahrisabz shahrida, 275 tasi Yakkabog` tumanida, 229 tasi Qarshi tumanida, 217 tasi Chiroqchi tumanida, 157 tasi Qamashi tumanida, 152 tasi Shahrisabz tumanida, 155 tasi Koson tumanida, 132 tasi G'uzor tumanida, 99 tasi Kasbi tumani, 59 tasi Muborak tumani, 98 tasi Nishon tumanida, 59 tasi Dehqonobod tumanida va 67 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

2019 yil 1 may holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni



Joriy yilning yanvar - aprel oylarida viloyatda 555 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo'lib, ulardan 100 tadan ortiq Qarshi shahriga, 50 tadan ortiq Chiroqchi va Yakkabog` tumanlariga, 40 tadan ortiq Shahrisabz, Kitob, Nishon, Qarshi tumanlariga, 30 tadan ortiq Shahrisabz shahriga, 20 tadan ortiq Kasbi, Koson va G'uzor tumanlariga, 10 tadan ortiq Dehqonobod, Qamashi va Mirishkor tumanlariga to'g'ri keladi.